

**O'ZBEKISTONDA BOLALAR ADABIYOTINING TA'LIM VA TARBIYAVIY
AHAMIYATI**

Nasimova Sitora Sobirovna

Sam.DU Pedagogika fakulteti,

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar adabiyotining bolalar ta'lism tarbiyasida nechog'lik kerakliligi, bolalarimizni yoshlikdan tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlar bilan tanishtirish orqali hayot haqidagi xulolarini chiqarish, keng fikrلaydigan, o'z mustaqil fikriga ega insonlar qilib tarbiyalashda bolalar adabiyotining o'rni haqida aytib o'tdik.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, ta'lism-tarbiya, folklor, hadis, insoniy xislatlar, ma'naviyat, fikr

Badiiy adabiyot insonlar hayotidagi o'zaro go'zal muomala va munosabatlarning shakllanishi, xususan, yoshlikdan kishilarga olam va odamlarga bog'liq hodisalar mohiyatini anglash, insonga xos tuyg'ularning rangin qirralarini his etish, insoniy fazilatlar va nuqsonlar mohiyati haqida o'ylash, fikr yuritish imkonini beradi.

Biz mustahkam jamiyat qurmoqchi bo'lsak, avvalo, uning poydevorini pishiq qilishimiz zarur. Bizning jamiyat poydevorlari, albatta, yoshlar, bolalardir. Ularga yoshlikdan to'g'ri tarbiya, sifatli ta'lism berish kelajakka qaratilgan e'tibordir. Xo'sh, bolalarga yaxshi tarbiya qanday singdiriladi? Albatta, bu adabiyot orqali.

"O'zbek xalqi qadimdan mehnatkash, savodxon xalq bo'lgan. Bunga erishmoq uchun esa farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor bergen. Bolalarga ta'lism-tarbiyada ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borgan. Boy va rang-barang xalq og'zaki ijodi namunalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manbaa bo'lib xizmat qiladi",⁶- deb aytib o'tadi. Haqiqatdan, biz bolalarga tarbiya berishda ming gapirganimiz bilan fikrimizni bitta misol- ertak yoki maqol bilan dalillasak, buning ta'siri ko'proq bo'ladi, bizningcha.

Bolalar adabiyoti ham boshqa adabiyotlar singari hali yozma adabiyot paydo bo'lmasdan, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Insonlarning og'izdan og'izga o'tib aytib kelgan qo'shiqlariyu o'lanlari va boshqalarda ularning orzu-istiklari, qiyinchiliklardan sabr va chidam bilan o'tishlari va go'zal hayotga yetishish istaklari mujassamdir. Ular shunday hayotlarni hech bo'lmasa farzandlarida ko'rishishni istashgan va ularning ongiga she'rlar orqali singdirishgan. Shulardan biri bu bola tug'ilgandan hali tili chiqmasdan alla tinglaydi. Bu ham bolaga ma'naviy ozuqa beradi. Ona shu alla qo'shig'i orqali farzandini o'sib-ulg'ayib yaxshi inson bo'lishini orzu qilib aytadi. Bola bu qo'shiq orqali orom olib u xlabeldi.

⁶ Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent-2006, 26-bet.

Xalq og‘zaki ijodida maqollarning ham o‘rni katta. Bu xalq donishmandligi natijasi. Bola ta’lim tarbiyasida maqollarning ham o‘rni kattadir. Har xil mavzudagi maqollar bolalarda vatanga muhabbat, ota-onaga mehr, kattalarga hurmat, mehnatkash bo‘lish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirib, yomon illatlardan kerakli xulosalar chiqarish kabi fikrlarini shakllantiradi. Masalan,

Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar,
Elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.

Kishi yeridan ayrilsa oz vaqtadan so‘ng uni unutar, yonidan yangisini olar, lekin elidan ayrilsa, tug‘ilgan makonidan ayrilsa, bunga chidab bo‘lmaydi. U o‘sha yer havosi, suvi, insonlarini butun umr qumsab o‘tadi. Mana shu tarzda bolalar ongida Vatan, el, ona tuproq qanchalar aziz va qadrli uni o‘rnini hech narsa hech kim bosa olmasligi singdiriladi.

Bundan tashqari ertak ham xalq og‘zaki ijodining eng rang-barang janrlaridan biridir. Ertaklarning ko‘plari majoziy xarakterga ega bo‘lib, ular zimdan insonlardagi xatti-harakatlarni, ijobiy va salbiy xislatlarni ko‘rsatadi. Masalan, “Uch og‘a ini botirlar” ertagini olsak, bolalar uni o‘qish, eshitish orqali tog‘ri so‘zlash, mehnatsevar bo‘lish, davyurak bo‘lish, birovlarining ishonchiga xiyonat qilmaslik kabi fazilatlarni o‘rganishadi. Shu og‘a inilardek ahl bo‘lib, o‘z maqsadlari yo‘lida to‘siqlardan qo‘rmasdan, taslim bo‘lmasdan o‘tsagina, albatta, yaxshi hayotga erishib, baxtli umr kechirishlarini oz bo‘lsada qalblarida his etishadi. Topishmoq, tez aytish kabilar ham shunday tarbiyaviy xulosalarga boydir.

Bolalalar tarbiyasida hadislарimizning ham o‘rni beqiyosdir. Bu borada ota-onas, o‘qituvchilarning xizmatlari katta. Bolalarga dinimiz, dinimizdagi taqiqlangan illatlar, foydali xislatlar haqida ham hadislarni o‘qib unga qo‘srimcha tarzida tushuntirsak, farzandlarimiz yoshlikdan ular haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Shu ruhda o‘sib ulg‘ayishadi. Ota-onani hurmat qilish, qo‘sniinchilik odoblari, qarindosh-urug‘chilik, mehr-oqibat, beva-bechoralarga yordam, sadaqa kabi insoniy fazilatlardan xabardor bo‘lib voyaga yetadi. Bu o‘rinda maktab darsliklariga ham kiritilgan Imom Buxoriy hadislari ancha ishonchli manbadir.

Bolalar adabiyotining namunalari Alisher Navoiy ijodida ham uchraydi. Uning ilm- ma’rifat, odob-axloqqa oid fikrlari ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qilingan. Xususan, “Xamsa” tarkibidagi “Hayratul-abror” asarining bir necha boblari odob-axloq, va ta’lim tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolatida ta’lim tarbiyaga doir qimmatli fikrlarini aytib o‘tadi. Navoiy asarlari tili biroz murakkabroq. Hozirgi kundagi bolalar tushunmaydi deyishimiz mumkin. Albatta, o‘sha davr tili bilan birga bugungi kundagi tabdili ham berilsa, bolalar o‘qib, yoki o‘qituvchi tomonidan hikoya qilinsa, ular o‘zlariga kerakli xulosalarni chiqaradilar. Misol keltirsak, “Hayratul-abror”ning 10-maqolati to‘g‘rilik va egrilik haqida. Navoiy ushbu bobda to‘grilik va egrilikni hayotiy misollar bilan tushuntiradi va so‘zining isboti sifatida “Sher va durroj” hikoyatini keltiradi. Yolg‘on so‘zlashning oqibati yomon

ekanligi, u bir kun kelib yolg‘on so‘zlagan kimsaning o‘zining boshiga kulfat keltirishini ushbu hikoyati orqali ochib beradi va bolalarda bu illatga qarshi oz bo‘s-a-da ma’naviy tushuncha hosil qiladi. Xullas, Navoiy ko‘plab asarlarida boshqa masalalar bilan birgalikda tarbiya borasidagi fikrlarini singdirib, o‘zidan boy o‘lmas meros qoldirgan adibdir.

Keying yillarda bolalar adabiyotidagi ulkan ishlar jadidlar tomonidan yanada boyitildi. Ular xalqimizni ilm-ma’rifatli qilish, yangicha uslubdagi bilimlar berishda say-harakat qildilar. Bu yo‘lda maktablar uchun, yangi turdagি darslik va qo‘llanmalar yozishdi. Yangi maktablar, teatrlar ochishdi. Bu yo‘da Behbudiy, Fitrat, Hamza, Abdulla Avloniy va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir. Birgina Avloniyni oladigan bo‘lsak, u o‘sha davr xalq pedagogikasi uchun “Birinchi Muallim”, “Ikkinchi Muallim”, “O‘qish” kitobi kabi kitob-darsliklar yaratdi. Xususan, uning “Ikkinchi Muallim” asarida bolalarning odob-axloqiga doir halollik, to‘gri so‘zlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar she’rlar, masallar, ertaklarda chiroqli tasvirlab berilgan. Masalan, “chin do‘st”, “Yalg‘on do‘st”, “Xurus ila bo‘ri” kabi masallarida insonlardagi do‘stlik, to‘g‘ri so‘zlash kabi fazilat va boshqa illatlar ko‘rsatilgan. “Chin do‘st” hikoyatida ikki do‘stning suvgaga tushib ketishi va qutqaruvchi kelganda o‘zini o‘ylamasdan birinchi do‘stini qutqarishini iltimos qilishi, bu, haqiqatdan, chin insoniylik do‘stga sodiqlikdir. Bolalar ham do‘st tutinganlarida shu xislatlarni o‘zlarida jam qilishlari ko‘rsatilgan.

Umuman, Avloniy asarlarining mazmundorligi, turli xil masal, hikoyatlardan foydalananligi hamda badiiy ta’sirchanligi bilan bolalar adabiyotining yaxshi namunasi bo‘lib qoldi.

“Bolalar kitobxonligini o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha)
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha)
3. O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13 yoshdan 15-17 yoshgacha)”⁷

Ko‘rib turganimizdek, bolalarga adabiyotlarni o‘qitishda ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olib tanlashimiz zarur. Birinchi yoshdagi bolalarga hali o‘qishni bilishmaganliklari uchun xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘zimiz, ya’ni ota-onha, o‘qituvchi, tarbiyachilar hikoya qilib bersak, ikkinchi yoshdagi o‘qishi uchun ham zamin hozirlaymiz ham o‘zlariga kerakli tarbiyaviy xulosalar chiqarishadi. Ikkinchi yoshdagi o‘quvchilarda endi adabiyotlar ko‘lami biroz kengayadi. Ular xalq og‘zaki ijodi bilan birga yozma adabiyot vakillarining asarlarini o‘qib, o‘zlarini fikrlab xulosa chiqara boshlashadi. Bu davrdagi bolalar hajman ixcham hikoya, ertak, she’riy ertaklarni o‘qiy oladi. Masalan boshlang‘ich maktab yoshidagi bola Shukur Sa’dullaning “Laqma it”

⁷ Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent-2006, 3-bet

she’riy ertagini bemalol o‘qib, firlab xulosa chiqara oladi. Sarlavhadan ham ma’lumki, asar bugungi ishni ertaga qo‘ymaslikka chaqiradi:

Chidolmadi qoqdi eshik, g‘
Derazadan boqdi mushuk,
Kechir dedi yolvordi it,
Mushuk dedi- yalinma ket.
Yozi bilan do‘stlashmading,
Biror og‘iz so‘zlashmading.
Yurding sang‘ib bir yil bekor,
Bo‘yning ishga bermadi yov.
Ajab bo‘ldi uy qurmading,
O‘z va’dangda sen turmading.

Qolgan ishga qor yog‘ar deganlariday, it uy qurmay qishning ayozli kunlarida uysiz qoladi. Birinchi yil unga hamma hayvonlar yordam beradi. Ikkinci yil yana laqmalik qilib qurmaydi va bu safar yakka yolg‘iz ko‘chada qoladi. Mana shunday ibratli asarlar bolajonlarimizni yoshlikdan mehnatsevar qilib tarbiyalashda eng yaxshi vositalardandir.

Bugungi kunda Yurtimizda kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatiga e’tibor katta. Xususan, Prezidentimizning 2017-yil 14-sentabr PQ-3271 sonli qarorida ham kitob mahsulotlarini tarqatish va nashr etish, ayniqsa bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etish davlat tomonidan qo‘llab -quvvatlash belgilab qo‘yildi, bundan tashqari “Yosh kitobxon” va bir qancha ko‘rik-tanlovlар o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Albatta, bularning hammasi mamalakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va buni yoshlardan boshlashimizni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Kitob – eng katta tarbiya o‘chog‘idir. Shekspir aytganidek: “Men kitoblarni emas, kitoblar meni yaratdi”. Ha kitob insonni yaratadi, tarbiya qiladi, rivojlantiradi. Ayniqsa, farzandlarimizni yoshlikdan kitobga qiziqishlarini oshirish bu ota-onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar xullas butun jamiyatning oldidagi ulkan vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M 2017-yil 14-sentabrdagi PQ-3271-sonli Qarori
2. Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent-2006, 3-bet
3. Jamilova B, O‘zbek bollaar adabiyoti, o‘quv qo‘llanma. Toshkent -2020
4. Kiyikbayev F.Q, Bolalar adabiyoti, o‘quv qo‘llanma. Andijon- 2020